

ATF HARFLARINING SINTAKSIS TAHLILI

Norboyeva Aziza Xusan qizi

Oriental universiteti arab filologiyasi fakultetining

3-bosqich talabasi

Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

Oriental universiteti Tillar-1

kafedra stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi atf harflarining sintaktik xususiyatlari, ularning grammatik vazifalari, ma'no nozikliklari va amaliy qo'llanilish doirasi keng yoritilgan. Atf harflari arab tili nahv tizimining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, ular matnda so'z, ibora va jummalarni mantiqiy bog'laydi, fikr izchilligini ta'minlaydi va jumla strukturasi yaxlitligini mustahkamlaydi. Maqolada klassik manbalar – “Al-Ajrumiyya”, “Sharh Ibn ‘Aqil” va zamonaviy adabiyotlardan, xususan Ne'matilla Ibrohimovning izohlaridan foydalanilgan. Tadqiqot davomida atf harflarining turlari, sintaktik boshqaruv va kelishuv qoidalari, va qo'llanilish misollar bilan tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: atf harflari, sintaksis, nahv nazariyasi, grammatik bog'lanish, arab tili tuzilishi.

Abstract : This article examines the syntactic nature of conjunction particles in Arabic grammar, analyzing their structural function and their role in forming grammatical relations within a sentence. Conjunction particles link words, phrases, and clauses, ensuring logical coherence and semantic unity in Arabic texts. The study uses classical sources such as “Al-Ajrumiyya” and “Sharh Ibn ‘Aqil” alongside modern works, including Nematilla Ibrohimov's analysis. The types of conjunctions, their syntactic rules, and semantic nuances are examined with practical examples, highlighting their stylistic and functional roles.

Keywords: conjunction particles, syntax, Arabic grammar, syntactic linkage, structural analysis.

Kirish. Atf harflari arab tilining sintaktik tizimida eng muhim vositalardan biri bo'lib, matnning mazmuniy yaxlitligi, jumlaning mantiqiy qurilishi va nutqning ohangdorligini ta'minlaydi. Nahv ilmi nuqtai nazaridan qaralganda, atf harflari so'zlar va jumlar orasida turli ma'naviy aloqalarni hosil qiladi, ularni o'zaro bog'laydi va matnni yaxlit grammatik tuzilma sifatida idrok etishga yordam beradi. Arab tili o'zining murakkab sintaktik tizimi bilan ajralib turadi, shu bois har bir aloqani to'g'ri ifodalash uchun maxsus vositalarga ehtiyoj seziladi. Atf harflari ana shunday vositalardan bo'lib, ular nutqning silliqiligi va izchilligini shakllantiradi. Birinchidan, atf harflari ma'nolar orasidagi munosabatni aniq belgilaydi. Masalan, “و” bog'lovchi ma'nosini, “ثُمَّ” ketma-ketlik va vaqt o'tishini, “بَلَّ” inkor va rad etishni bildiradi. Harflar turlicha ma'nolarni ifodalash orqali matnning mazmuniy yo'nalishini belgilaydi, fikrning qayerdan qayerga og'ayotganini ko'rsatadi. Bu mantiqiy izchillikni saqlashda muhim o'rin tutadi.

Ikkinchidan, atf harflari e'roba bevosita ta'sir qiladi va shu orqali grammatik birliklarning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ma'tuf ma'tuf 'alayhning e'roba ergashadi, bu esa so'zlar orasidagi sintaktik tenglikni ta'minlaydi. Bu jihat arab tilining ichki tizimini mustahkamlaydi va fikrni aniq, tartibli yetkazishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, atf harflari murakkab jumalarni qisqa, sodda va tushunarli shaklda bog'lash imkonini beradi. Shuningdek, ular jumlar orasida sabab-natija, zidlik, ketma-ketlik, tanlov kabi mantiqiy aloqalarni aniq ifodalab, o'quvchi yoki tinglovchiga matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Klassik manbalarda, xususan Ibn Molik, Ibn Hishom, Ibn Aqiyllarning kitoblarida atf harflarining tabiati, qo'llanish shartlari va ma'no nozikliklari mukammal sharhlangan. Zamonaviy manbalarda esa Nematilla Ibrohimov atf harflarining amaliy va nazariy jihatlarini kengaytirib, misollar bilan tahlil qilgan.

Atf harflarining ta'rifi va grammatik vazifasida nahv manbalariga ko'ra, harf al-atf

(حرف العطف) jumla tarkibidagi ikki soʻz yoki jumlani grammatik va semantik jihatdan bogʻlaydigan vositadir. Atfning asosiy vazifasi — maʼtufni maʼtuf alayhiga eʼrob jihatdan ergashtirishdir. Misol: “جَاءَ زَيْدٌ وَعَمْرُو” Zayd va Amr keldi”

Bu yerda “عمرو” soʻzi maʼtuf boʻlib, “زيد” (maʼtuf ilay) eʼrobga ergashadi.

Atf harflarining turlariga keladigan boʻlsak ular:

1. و (va) – bogʻlovchi maʼnosida, ikki yoki undan ortiq soʻz, ibora yoki gapni teng holda bogʻlaydi. Misol: جَاءَ الْمُدَرِّسُ وَ الطُّلَّابُ – “Oʻqituvchi va talabalar keldi”.
2. ف (bas) – ketma-ketlik va natija maʼnosini bildiradi. Misol: دَخَلَ الْمُعَلِّمُ فَجَلَسَ – “Oʻqituvchi kirdi, soʻng talabalar oʻtirishdi”.
3. ثُمَّ (soʻng) – ketma-ketlik, Ikki amal yoki holat orasida vaqt oraligʻi borligini koʻrsatadi. Misol: سَافَرَ زَيْدٌ ثُمَّ رَجَعَ – “Zayd safarga chiqdi, keyin qaytdi”.
4. أَوْ / أَمْ (yoki) – tanlov va shubha maʼnosi. Misol: خُذِ الْقَلَمَ أَوْ الدِّقْتَرَ – “Qalamni yoki daftarni ol.”
5. بَلْ (balki) – avvalgi fikrni rad etib, ikkinchi fikrni kuchaytiradi. Misollar: لَمْ يَذْهَبْ مُحَمَّدٌ بَلْ عَلِيٌّ ذَهَبَ – “Zayd kelmadi, balki Amr keldi”, مَا جَاءَ زَيْدٌ بَلْ عَمْرُو – “Muhammad bormadi, balki Ali bordi.”
6. لَكِنْ (lekin) – zidlik bildiradi, avvalgi fikrga qarama-qarshi ikkinchi fikrni taʼkidlaydi. Misollar: مَا ذَهَبْتُ لِأَلْعَبَ لَكِنْ لِأَدْرُسَ – “Men oʻynashga bormadim, lekin oʻqishga bordim”, لَمْ يَخْضُرْ زَيْدٌ لَكِنْ خَالِدٌ حَضَرَ – “Zayd kelmadi, lekin Xalid keldi.”

Atf harflarining sintaktik shartlari bir necha turga boʻlinadi: maʼtuf alayh boʻlishi shart, eʼrob hukmi teng boʻlishi kerak, atf harfi maʼnoga mos kelishi lozim, unsurlar oʻzaro munosib boʻlishi kerak.

Arab tili grammatikasida atf tushunchasi nahv ilmidagi muhim sintaktik bogʻlanish turlaridan biri hisoblanadi. Imom Ibn Ajurrum oʻzining mashhur “Matn al-Ajrumiyya” asarida atf mavzusini tobeʼ boʻluvchi birliklar (التوابع) boʻlimida bayon qiladi. Ushbu boʻlimda atf sifat (النعت), taʼkid (التوكيد) va badal (البدل) bilan bir qatorda zikr etilib, uning gap tarkibidagi grammatik vazifasi aniq koʻrsatib beriladi. Ajrumiyya nuqtayi nazaridan qaralganda, atfning taʼrifi quyidagicha beriladi: وَالْعَطْفُ هُوَ تَبَعِيَّةُ لَفْظٍ لِفَظٍ بِحَرْفٍ مِنْ حُرُوفِ الْعَطْفِ — yaʼni, atf bir lafzning boshqa bir lafzga

atf harflaridan biri vositasida ergashishidir. Ushbu ta'rif atfning mohiyatini to'liq ochib beradi, chunki bunda asosiy e'tibor ma'tufning ma'tuf 'alayhga e'rob va grammatik holat jihatidan to'liq bo'ysunishiga qaratiladi. Demak, atf mazmuniy emas, balki lafziy-sintaktik tobe'lik asosida yuzaga keladi.

Ajrumiyya asarida atfning amalga oshishi uchun maxsus atf harflari mavjudligi ta'kidlanadi. Muallif bu harflarni aniq sanab o'tadi va ularning soni o'nta ekanini ko'rsatadi. Ular orqali gap bo'laklari o'zaro bog'lanadi va ergashuvchi so'z ergashiluvchi so'zning e'robini oladi. Shunday qilib, Ajrumiyya talqinida atf — bu harf orqali yuzaga keladigan qat'iy grammatik bog'lanish bo'lib, u arab tilidagi sintaktik tizimning muhim unsurlaridan biri sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, arab tili nahv tizimida atf harflari (حروف العطف) grammatik, semantik va uslubiy jihatdan nihoyatda muhim kategoriyadir. Ular matn tarkibida so'zlar, iboralar va jumlar o'rtasida mantiqiy bog'lanish yaratib, fikrning izchilligi va ravonligiga xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab gaplarda mazmunning aniqligi, sabab-natija yoki zidlik munosabatlarining ifodasi ko'pincha atf harflari orqali ta'minlanadi. Shuning uchun ham atf harflarini to'g'ri qo'llash arab matnini to'g'ri talqin qilishda asosiy kompetensiyalar qatoriga kiradi.

Atfning asosiy grammatik qoidalaridan biri – “ma'tūf (مَعْطُوف)”ning ma'tūf عليه ((مَعْطُوفٌ عَلَيْهِ)) e'robiga to'liq ergashishi – nahv manbalarida qat'iy belgilangan tamoyil bo'lib, bu qoida arab tilidagi gap tuzilishini o'rganuvchilar uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi. Arab grammatik maktabi namoyondalari asarlarida, xususan Ibn Molik, Ibn Hishom, Ibn 'Aqil kabi nahvshunoslarning izohlarida bu qoidaning har bir jihatini chuqur sharhlangan. Zamonaviy o'quv adabiyotlarida, jumladan Nematilla Ibrohimovning izlanishlarida esa bu qoidaning amaliy qo'llanishi keng ko'lamda misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, atf harflari nafaqat grammatik bog'lovchi vosita, balki stilistik effekt beruvchi unsurlardan biri sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Shu bois, atf harflarining nazariy asoslarini ham, amaliy qo'llanilishini ham chuqur o'rganish arab matnshunosligi, tarjimashunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va

tilshunoslik yoʻnalishlari uchun zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada keltirilgan nazariy qoidalar va amaliy misollar talabalar, boshlangʻich tadqiqotchilar, arab tilini chuqur oʻrganishga qiziqqan oʻquvchilar hamda tarjimonlar uchun ishonchli ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, atf harflarining sintaksis tahlili arab tilining ichki tizimini, uning mantiqiy tuzilishi va fikr ifodasi mexanizmlarini anglash uchun muhim nazariy asos boʻlib, nahv ilmining eng faol va koʻp uchraydigan boʻlimlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, mazkur mavzuni oʻrganish va amaliyotda qoʻllash arab tilining murakkab grammatik tizimini mukammal egallashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. Toshkent: Oʻqituvchi, 2018. 156–162-betlar.
2. Ibn Ājurrūm, Muhammad. Al-Ājrūmiyya fī al-Nahw. Qohira: Dār al-Maʼārif, 2005. 45–47-betlar.
3. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ-ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
4. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
5. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
6. Жўраева, М. (2022). «Ал-фавоиду-з-зиёиййа» ва «Кофия» асарларида феъл туркумининг ёритилиш принциплари. *Востоковедение*, 14(2), 58-65.
7. Rahimjonov, M. (2026). THE ROLE OF WESTERN SCHOLARS IN STUDYING THE LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF CENTRAL ASIAN

SCHOLARS AND THINKERS. *Journal of Social and Theological Studies*, 1(1), 5-13.

8. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGAHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA’T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.

9. Mamajanova, V. Arab Tilini O ‘qitishda Yozma Nutq Ko ‘nikmasini Shakllantirishning Metodik Asoslari Va Zamonaviy Yondashuvlar. *Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali*, 676270.

10. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahv” asarining Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari: Tekstologik va metodologik tahlil. Oriental Journal of Philology*, 6(I3), 588–599. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-I3-60>

11. Rustamova, M. B. Q., & Raxmonov, A. K. (2026). *Al-Mutarriziyning “Risalatun fi an-nahv” asarida ko‘makchi so‘zlarning semantik va sintaktik xususiyatlari. Science Time Journal*, 4(5/1), 487–492.

12. Komilovich, R. A. (2026). NOSIR AL-MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA SO ‘Z TURKUMLARI TASNIFI VA ULURNING LINGVISTIK MEZONLARI. *Innovation and development*, 4(5), 339-343.

13. Рахмонов, А. К. (2026). ЛЕКСИКОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АЛ-МУТАРРИЗИЯ. «*Qazaqtany*», (29), 162-171.

14. Raxmonov, A. K. (2025). *Mutarriziyning “Risolatun fin nahv” asari mo‘jaz grammatik manba. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85–88.

15. Azimboyevna, Y. S. (2024). Jahon va o‘zbek fantastik asarlarida takroriy motiv tushunchasi va uning badiiy talqini. *Research Focus*, 3(Special Issue 1), 19-23.

16. Жупаева, С. Х. (2024). Interaction of youth slang and cultural values of the people. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(4), 119-126.